



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

ZO'RAVONLIK BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH JIHATLARI

Saydullaev Asliddin Xusniddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 313-gurux kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari, uning ijtimoiy xavfli oqibatlari hamda profilaktika tizimidagi mavjud muammolar ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, aholi huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, erta profilaktika choralari kuchaytirish orqali zo'ravonlik holatlarini kamaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola materiallari huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar. zo'ravonlik, huquqbuzarlik, profilaktika, jinoyatlarning oldini olish, ijtimoiy xavf, huquqiy ong, profilaktika sub'ektlari, profilaktik tadbirlar.

Bugungi kunda jamiyat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar inson hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy tahdid solishi bilan ajralib turadi. Bunday huquqbuzarliklar nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ma'naviy zarar yetkazishi bilan ham jamiyatda salbiy ijtimoiy muhit shakllanishiga olib keladi.

So'nggi yillarda zo'ravonlik holatlarining ayrim turlari, jumladan, oilaviy zo'ravonlik, maishiy mojarolar zahirida sodir etiladigan huquqbuzarliklar hamda yoshlar o'rtasidagi tajovuzkor xulq-atvor namoyon bo'lishining ortib borishi mazkur muammoni chuqur o'rganishni talab etmoqda. Shu bois, zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zo'ravonlikning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, davlat va jamiyat institutlarining o'zaro hamkorligi, profilaktik tadbirlarning tizimli va manzilli ravishda amalga oshirilishi bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, profilaktika faoliyatida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish hamda erta ogohlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada aynan shu masalalarga e'tibor qaratilgan bo'lib, zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar bayon etiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar shaxsning hayoti, sog'lig'i, jismoniy daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar majmuasini tashkil etadi. Bunday huquqbuzarliklar jamiyat uchun yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi va ko'p hollarda og'ir oqibatlariga olib keladi.

Zo'ravonlik jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jismoniy zo'ravonlik bevosita tan jarohati yetkazish bilan bog'liq bo'lsa, ruhiy zo'ravonlik tahdid, haqorat, qo'rqitish orqali shaxs psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy zo'ravonlik shaxsning moddiy manbalarini cheklash yoki nazorat qilishda ifodalansa, jinsiy zo'ravonlik shaxsning jinsiy erkinligi va daxlsizligiga tajovuz qilish bilan xarakterlanadi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning aksariyati maishiy munosabatlar doirasida, xususan, oilaviy nizolar zahirida sodir etiladi. Bu esa ularning oldini olishda kompleks va individual yondashuvni talab etadi.

Jamiyatda keskinlik tobora kuchayib borayotganligini, zo'ravonlikning ortayotganligini ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan turli ma'lumotlar orqali kuzatish mumkin. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil dunyo bo'ylab o'tkazilgan tadqiqot natijalari, dunyodagi 35 % voyaga yetmaganlar umri davomida hech bo'lmasa bir marotaba jismoniy, zo'ravonlikka duchor bo'lganligini, 44 % ayollar oila-turmush sharoitida jabrlanuvchi bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Zo'ravonlikning sodir etilishiga olib keluvchi omillar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-psixologik va huquqiy omillarga bo'linadi. Ijtimoiy omillarga ishsizlik, kambag'allik, oilada nosog'lom muhit, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalarining suiiste'moli kiradi.

Psixologik omillar shaxsning agressivligi, stressga chidamsizligi, nizolarni hal qilish ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda tarbiyadagi kamchiliklar natijasida shakllanadi. Shuningdek, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati past darajada bo'lishi ham zo'ravonlik holatlarining ko'payishiga zamin yaratadi.

Zo'ravonlikning sabablarini to'g'ri aniqlash profilaktika choralarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir sababga nisbatan manzilli ta'sir choralari qo'llanilmasa, profilaktika natijadorligi pasayadi.

Zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla instituti, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Profilaktika faoliyati umumiy, maxsus va individual chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Umumiy profilaktika aholining huquqiy ongini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi. Maxsus profilaktika esa xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, individual profilaktika aniq shaxsga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralarini o'z ichiga oladi.

Amaliyotda profilaktika sub'ektlari o'rtasida axborot almashinuvining yetarli emasligi va vazifalar taqsimotining aniq belgilanmagani faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Zoʻravonlik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat tizimining faoliyati bilan bogʻliq vaziyatni qisman aks ettiruvchi sanab oʻtilgan muammolar ushbu sohada eng maqbul yoʻnalishlarni ilmiy izlanishlar zarurligini oldindan belgilab beradi, shuningdek, muammolarni hal etishning oʻz vaqtida va asosli ekanligini aniq koʻrsatib beradi. Oʻzbekiston dunyo davlatlari bilan inson huquqlari boʻyicha shartnomalar imzoladi va bu boʻyicha xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. 1948-yilda qabul qilingan – Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida inson huquqlari umumiy asosda himoya qilinishi belgilangan. Xotin-qizlarning huquqlari xususida alohida bir qator huquqiy normativ hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi Konvensiya hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonini keltirib oʻtishimiz mumkin.

Zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini takomillashtirish uchun, avvalo, profilaktikaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash talab etiladi. Qonunchilikni amaliyot bilan uygʻunlashtirish, huquqni qoʻllashda yagona yondashuvni taʼminlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, erta profilaktika mexanizmlarini joriy etish, oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan mediativ usullardan foydalanish samarali natija berishi mumkin. Aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, taʼlim muassasalarida zoʻravonlikka murossasizlik tamoyilini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Profilaktika subʼektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda monitoring va tahlil tizimini takomillashtirish ham zoʻravonlik holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, quyidigacha xulosa qilish mumkin, bular:

□ Zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorlarining faoliyati markaziy oʻrin egallaydi hamda mazkur faoliyatning samaradorligi jamiyatda huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini taʼminlash bilan uzviy bogʻliqdir.

□ Tahlil natijalari profilaktika inspektorlari tomonidan zoʻravonlikka olib keluvchi ijtimoiy xavfli holatlarni barvaqt aniqlash va ularga nisbatan taʼsirchan profilaktik choralar qoʻllash amaliyoti yetarli darajada shakllanmaganligini koʻrsatmoqda.

□ Profilaktika inspektorlari faoliyatida idoralararo hamkorlik mexanizmlarining tizimli yoʻlga qoʻyilmagani, ayniqsa mahalla, taʼlim va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan oʻzaro hamkorlikda aniq huquqiy reglamentlar mavjud emasligi profilaktika ishlari samaradorligini pasaytirayotgan omillardan biri hisoblanadi.

□ Inspektorlarning psixologik tayyorgarligi, konfliktlarni hal etish va mediativ koʻnikmalari zoʻravonlik holatlarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega boʻlsa-da, amalda mazkur yoʻnalish boʻyicha kasbiy tayyorgarlik darajasi talabga javob bermaydi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

□Профилактика инспекторы faaliyetida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi past bo'lib, profilaktik faaliyetni rejalashtirish, monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faaliyetini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar berib o'tilishi lozim topildi:

□Профилактика инспекторы faaliyetida zo'ravonlikka olib keluvchi xavf omillarini aniqlashga qaratilgan mezonlar va indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

□Инспекторларнинг kasbiy malakasini oshirish jarayonida psixologiya, konfliktologiya va mediatsiya bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish, shuningdek, xizmat faaliyetida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish zarur.

□Профилактика инспекторы, mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni tartibga soluvchi aniq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash lozim.

□Zo'ravonlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan yakka tartibda profilaktik hisobga olish, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini kompleks ravishda qo'llash zarur.

□Профилактика инспекторы tomonidan aholi o'rtasida, ayniqsa oilalar va yoshlar qatlamida zo'ravonlikning huquqiy oqibatlari bo'yicha tushuntirish ishlarini rejali va manzilli tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

□Zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni hisobga olish, tahlil qilish va prognozlash uchun yagona elektron axborot tizimini ishlab chiqish hamda profilaktika инспекторы faaliyetida undan samarali foydalanishni ta'minlash zarur.

□Инспекторлар faaliyetini baholashda faqat aniqlangan huquqbuzarliklar soni emas, balki oldi olingan zo'ravonlik holatlari, amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar natijadorligi kabi sifat ko'rsatkichlarini joriy etish lozim.

Mazkur maqolada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faaliyetini takomillashtirishning dolzarb masalalari, xususan profilaktika инспекторларining ushbu yo'nalishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy xavfli hodisa ekanligini hamda ularning oldini olishda profilaktika choralarining ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Amalga oshirilgan tahlillar profilaktika инспекторы faaliyetida erta profilaktika mexanizmlarini qo'llash, zo'ravonlikka olib keluvchi omillarni barvaqt aniqlash va ularga nisbatan manzilli ta'sir choralarini belgilash yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi. Shuningdek, idoralararo hamkorlikning tizimli yo'lga qo'yilmagani, инспекторларning psixologik va mediativ tayyorgarligi talab darajasida emasligi profilaktika ishlari samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida aniqlandi.

Tadqiqot davomida zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish faaliyetini takomillashtirish profilaktika инспекторы faaliyetini qayta tashkil etish, ularning



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

kasbiy salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini tizimlashtirish bilan bevosita bog'liq ekani asoslab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning: "Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda" degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ichki ishlar organlari xodimlari tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo'g'inlardan biri bo'lib, xodimlarning malakasi va zo'ravonlik sodir yetilgan hollarda amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayolning profilaktika inspektori davlat himoyasini ta'minlab berishiga bo'lgan ishonchiga kelgusi harakatlari bog'liq. Voyaga yetmaganlarni Zo'ravonlikdan jabrlanishini oldini olish va ularga ijtimoiy, huquqiy, ruhiy, tibbiy yordam ko'rsatishning tartibi, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va uning samarali profilaktikasi bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlarining zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi me'yoriy-amaliy faoliyatni takomillashtirishda hamda ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr.
<https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Aliqulovich T. A., Shukurjon o'g'li I. J. Кибержиноятларга қарши курашнинг замонавий тенденциялари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 33-40.

3. Aliqulovich T. A., Bahodir o'g'li B. A. Raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 9-14.

4. Aliqulovich T. A., Axmat o'g'li M. A. Majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda iio profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 4-8.

5. Aliqulovich T. A., Ilhom o'g'li B. S. Badanga og'ir tan jaroxati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasini tushunchasi va uni amalga oshirish choralari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-92.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

6. Aliqulovich T. A. et al. Терроризм билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш этиш ва амалга оширишнинг хусусиятлари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 15-20.

7. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ra vonliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, turlari va ijtimoiy xavfi //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 213-219.

8. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ra vonlik jinoyatlarini oldini olishning huquqiy asoslari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 220-226.

9. Таштемиров А. А. и др. Профилактика инспекторининг нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ўзига хос хусусиятлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar journali. – 2025. – Т. 4. – №. 47. – С. 189-196.